

**QADIMGI XORAZM DAVLATCHILIGI TARIXIDA TUPROQQAL'A  
YODGORLIGINING O'RNI****Omonova Madinabonu O'tkir qizi***Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti**Tarix fakulteti Tarix yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Tuproqqal'a yodgorligi qadimgi Xorazm vohasining eng muhim arxeologik markazlaridan biri hisoblanadi. U milodiy III–IV asrlarda Xorazm shohlarining siyosiy va madaniy markazi sifatida xizmat qilgan. Qal'aning murakkab me'moriy tuzilishi, devorlarining balandligi, ichki saroy va xo'jalik binolari qadimgi Xorazm davlatining yuqori darajadagi shaharsozlik an'analari va mudofaa tizimidan dalolat beradi. Tuproqqal'adan topilgan devoriy suratlar, haykaltaroshlik namunalariidan tortib, sopol buyumlar va yozuvlarga bo'lgan topilmalar o'sha davr jamiyatining diniy qarashlari, san'at darajasi hamda ijtimoiy-siyosiy hayotini chuqur yoritib beradi. Yodgorlik O'rta Osiyo xalqlarining davlat boshqaruvi, diniy e'tiqodlari va madaniy merosini o'rganishda bebaho manba hisoblanadi.*

**Kalit so'zlar:** *“Yer shahri”, Sergey Pavlovich Tolstov, Kiyiklar zali, Qirollar zali, G'alaba zali, 200 ga yaqin xo'jalik va turar-joy, Kushonlar, Sosoniylar*

**Annotation:** *The Tupraqqala monument is one of the most important archaeological centers of the ancient Khorezm oasis. It served as the political and cultural center of the Khorezm kings in the 3rd–4th centuries AD. The complex architectural structure of the fortress, the height of its walls, the inner palace and farm buildings testify to the high urban planning traditions and defense system of the ancient Khorezm state. The finds from Tupraqqala, from wall paintings and sculptures to ceramic objects and inscriptions, deeply shed light on the religious views, level of art, and socio-political life of the society of that time. The monument is an invaluable source in the study of state governance, religious beliefs, and cultural heritage of the peoples of Central Asia.*

**Keywords:** *“City of the Earth”, Sergey Pavlovich Tolstov, Deer Hall, Kings Hall, Victory Hall, about 200 farms and settlements, Kushans, Sassanids*

**Аннотация:** *Тупраккала — один из важнейших археологических центров древнего Хорезмского оазиса. В III–IV веках н.э. она служила политическим и культурным центром хорезмских царей. Сложная архитектурная структура крепости, высота её стен, внутренний дворец и хозяйственные постройки свидетельствуют о высоких традициях градостроительства и оборонительной системе древнего Хорезмского государства. Находки из Тупраккалы, от настенной живописи и скульптуры до керамических изделий и надписей, глубоко проливают свет на религиозные взгляды, уровень искусства и социально-политическую жизнь общества того времени. Памятник является бесценным источником для изучения государственного управления, религиозных верований и культурного наследия народов Центральной Азии.*

**Ключевые слова:** *«Город Земли», Сергей Павлович Толстов, Олений зал, Царский зал, Зал Победы, около 200 хозяйств и поселений, Кушаны, Сасаниды*

Tuproqqal'a yodgorligi — "Yer shahri" nomi bilan ham mashhur bo'lgan qadimgi Xorazm sivilizatsiyasining eng muhim va yaxshi o'rganilgan arxeologik obidasidir. U Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani hududida, Bo'ston qishlog'idan 12 km shimoliy-g'arbda joylashgan. Yodgorlik birinchi marta 1938 yilda sovet arxeologi Sergey Pavlovich Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi tomonidan ilmiy jihatdan o'rganilgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, shaharning umumiy maydoni 120 gektarni tashkil etib, u bir vaqtlar mustahkam mudofaa devori va kvadrat minoralar bilan o'ralgan monumental qal'a-saroy majmuasidan iborat bo'lgan. Tuproqqal'a milodiy II–III asrlarda Xorazm shohlarining siyosiy qarorgohiga aylangan bo'lib, uning ichki tuzilishi himoya galereyalari, ko'chalar tarmog'i, savdo rastalari va markaziy magistraldan iborat shahar infratuzilmasini o'z ichiga olgan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shahar hududi 200 dan ortiq xo'jalik va turar-joy binolarini o'z ichiga olgan 10 ta mahalladan tashkil topgan. Har bir mahallada ibodatxona va hunarmandchilik ustaxonalari o'z ichiga olgan mahalliy markaz mavjud bo'lgan. Shahar aholisi 2 500 dan ortiq kishidan iborat bo'lib, ularning katta qismi saroy xizmatida band bo'lgan. Saroy majmuasi o'zining me'moriy ulug'vorligi bilan ajralib turadi: uning balandligi 40 metrga yetgan va u haykaltaroshlik hamda devoriy tasvirlar bilan bezatilgan 150 dan ortiq xonani o'z ichiga olgan.

Tuproqqal'a me'moriy jihatdan uch asosiy qismdan tashkil topgan: shahar, yuqori saroy va shimoliy majmua. Shahar qismi 500 × 350 m o'lchamli to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, balandligi 8–9 metrga yetuvchi mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. Devo borlab to'rtburchak minoralar qurilgan bo'lib, tashqi perimetr atrofida keng himoya xandaqlari qazilgan. Shahar darvozasi inshootlar tizimidan iborat murakkab mudofaa qurilmasini tashkil etgan: undan o'tuvchi markaziy ko'cha qalinligi 9 metrni tashkil etib, bevosita qal'agacha cho'zilgan. Yodgorlikda otashparastlik ibodatxonasi aniqlangan bo'lib, unda ko'plab muqaddas o'choqlar qayd etilgan. Shuningdek, qo'chqor shoxlari, shisha idishlar, gips haykallar qoldiqlari va oltin bilan bezatilgan zargarlik buyumlari topilgan bino ham e'tiborga molik arxeologik obyekt hisoblanadi.

Yuqori saroy majmuasi kesilgan piramida shaklidagi poydevorga ega bo'lib, uning asosiy tana qismi xom g'ishtdan qurilgan va fasad yuzasi vertikal bo'rtmalar tizimi bilan bezatilgan. Arxeologik qazishmalar davomida 100 ga yaqin inshoot aniqlangan bo'lib, ular tahoratxona, qurol-yarog' saqlash xonasi va boshqa xo'jalik maqsadlariga xizmat qilgan. Saroyning yuqori qavatida qurbonlik marosimlari o'tkaziladigan ibodatxona joylashgan. Majmuaning markaziy qismini ibodat va marosim zallaridan iborat kompleks tashkil etgan. Bino devorlari naqsh elementlari bilan, saroyga tegishli beshta zal esa rangbarang sopol barelyeflar bilan bezatilgan. Ushbu bezak namunalari bir qismi bugungi kungacha saqlanib kelmoqda.

Saroyning beshta marosim zali o'ziga xos ikonografik dastur asosida bezatilgan. "Qirollar zali"da qurbonlik qilinadigan maxsus xonada Xorazm sulolasining 23 nafar qiroliga oid haykal shaklidagi tasvirlar saqlanib, ularning oldida muqaddas olov yonib turgan. "G'alaba zali" sultonlarga qirollik unvoni topshirish marosimini aks ettiruvchi barelyeflar bilan bezatilgan: taxtda o'tirgan qirollar va ularning tepasida parvoz qilayotgan ilohiy mavjudotlar tasvirlangan. "Qora tanli jangchilar zali"da tokchalarda tik turgan

qirollar tasvirlari aks ettirilgan bo'lib, ularning oldida karnay chalib turgan qovoq tanli jangchilarning kichik haykallari joylashtirilgan. “Kiyiklar zali” bu hayvonlarning haykal ko'rinishidagi tasvirlari bilan bezatilgan bo'lib, ustki qismida grif qush tasvirlari mavjud — bu bezaklar tabiat va hayot davomiyligi g'oyasini anglatgan, deb taxmin qilinadi. “Niqob bilan raqs tushiladigan zal” diniy mazmundagi misteriyalar, ya'ni marosim namoyishlari uchun mo'ljallangan bo'lib, devorlarida raqsga tushayotgan erkak va ayollar tasvirlari qisman saqlanib qolgan. Ushbu zalning asosiy tokchasida yirtqich maxluq bilan ilohiy mavjudotning qo'shma tasviri, ikki yondagi katta tokchalarda esa unga hamroh ma'budalar tasvirlangan bo'lgan. Zalning o'rtasida qurbonlik supasi joylashgan.

Tuproqqal'adan topilgan eng muhim arxeologik manbalardan biri qadimgi Xorazm yozma hujjatlaridir. Qazishmalar davomida aniqlangan bu hujjatlar davlat boshqaruvi va ma'muriy tizim to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beradi. Ularda soliq undirish, xo'jalik mahsulotlarini hisobga olish va mehnat resurslarini taqsimlashga oid yozuvlar mavjud bo'lib, bu qadimgi Xorazmda iqtisodiy nazorat va hujjatlashtirish tizimining yuqori darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Terida bitilgan qo'lyozmalarda turli mol-mulk va buyumlarning kirim-chiqimiga oid ma'lumotlar qayd etilgan bo'lib, sanalari milodiy I asrning boshlaridan 188–252 yillargacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Yog'ochga bitilgan qo'lyozmalarda esa ozod va qul erkaklarni o'z ichiga olgan bir necha Xorazmiy guruhlarining ro'yxati keltirilgan. Shimoliy saroy majmuasi Tuproqqal'a shahridan taxminan 100 metr masofada joylashgan bo'lib, umumiy maydoni 12 gektarni tashkil etuvchi bir necha binolardan iborat. Ushbu majmuadagi asosiy binoda oq va qora fonda katta-kichik rozetta va o'simlik naqshlari bilan bezatilgan rang-barang devoriy tasvirlar saqlanib qolgan bo'lib, u 50 ta xonani o'z ichiga olgan va ayrim xonalarda oyoq hamda kiyim qoldiqlarini aks ettiruvchi haykal fragmentlari ham topilgan.

Tuproqqal'aning shimoli-sharqiy qismida maxsus ko'tarma supa (balandligi 14 m, maydoni 80×80 m) ustiga xom g'ishtdan saroy qurilgan. Unga yonma-yon balandligi 25 m bo'lgan 3 ta minorali ark binosi (maydoni 40×40 m) qurilgan. Arkka sharq tomonidan ko'tarma yo'lak orqali kirish ta'minlangan. Umuman, Tuproqqal'ada 100 ga yaqin turar-joy va xo'jalik binolari hamda 8 ta saroy xonasi arxeologik jihatdan tadqiq etilgan. Tuproqqal'a qadimgi Xorazm davlatining asosiy poytaxtlaridan biri sifatida muhim siyosiy vazifani bajargan: bu yerda shohlar istiqomat qilib, davlat boshqaruvi amalga oshirilgan. Yodgorlikdan topilgan moddiy madaniyat namunalari — devoriy tasvirlar, haykaltaroshlik asarlari, yozuv topilmalari va sopol buyumlar — Xorazmda san'at, me'morchilik va hunarmandchilikning yuksak darajada rivojlanganini tasdiqlamoqda. Diniy timsollar va mifologik mavzular aks ettirilgan devoriy rasmlar o'sha davr aholisining e'tiqodiy tasavvurlari to'g'risida muhim ma'lumot beradi. Tuproqqal'a orqali qadimgi Xorazmning Kushonlar, Sosoniylar va qo'shni mintaqalar bilan bo'lgan madaniy-siyosiy aloqalari ham ilmiy jihatdan o'rganiladi. Shahar iqtisodiyotiga kelsak, markaziy ko'chalar va savdo rastalari mavjudligi ichki savdoning rivojlanganligini ko'rsatadi. Aholi dehqonchilik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlari va chorva mahsulotlarini sotib, iqtisodiy faol shahar hayotini tashkil etgan. Savdo yo'llari orqali turli hududlardan kelgan tujjorlar va ustalar shaharning madaniy almashinuv jarayonini boyitgan. Bundan tashqari, qazishmalar davomida Kushon hukmdorlari Vima Kadfiz va Xuvishka hukmronligi davriga mansub

tangalar, sherning oltin boshi hamda barelyef tayyorlashda ishlatiladigan alabastr qoliplar topilgan. Tadqiqotchilar xususan shuni ta'kidlaydilar: ellinistik uslubdagi badiiy bezaklar faqat saroy xonalarini emas, balki oddiy fuqarolar turar-joylarini ham qoplagan — bu esa Tuproqqal'a shahrida madaniy yutuqlarning keng qatlamlargacha yetib borgan yuksak sivilizatsiyaviy darajadan dalolat beradi.

Qal'a uch qavatdan iborat bo'lgan bo'lib, uning xonalaridan turli toifadagi arxeologik topilmalar aniqlangan: organik qoldiqlar (suyak va urug'lar), sopol buyumlarning bo'laklari va butun namunalari, xilma-xil idishlar, zargarlik buyumlari, haykaltaroshlik asarlari — jumladan, ilmiy doiralarda keng ma'lum bo'lgan Ruhoniy haykali — hamda qadimgi Xorazm yozuv yodgorliklari. Tuproqqal'aning janubi-sharqidan 30 km masofada joylashgan "Ellikqal'a vohasi"ning muhim tarkibiy qismlaridan bo'lgan Qo'yqirilgan qal'a va Ayoq qal'a kabi yodgorliklar ham mintaqaning arxeologik ahamiyatini yanada oshiradi. Ma'lumki, Xorazm poytaxti miloddan avvalgi 305-yildan so'ng afriq'iyar sulolasi davrida Kat shahriga (hozirgi Beruniy) ko'chirilgan, biroq Tuproqqal'a shahri milodiy VI asrgacha o'z mavqeini saqlab, rivojlanishda davom etgan.

Tuproqqal'a yodgorligi qadimgi Xorazm sivilizatsiyasining siyosiy, ijtimoiy, madaniy va diniy hayotini bir butun tizim sifatida aks ettiruvchi noyob arxeologik manba hisoblanadi. Yodgorlikning me'moriy tuzilmasi — saroy majmualari, mudofaa devorlari va ichki hovli tartibi — milodiy ilk asrlarda Xorazmda markazlashgan davlat boshqaruvining shakllanganligi, ijtimoiy tabaqalanish tizimining mavjudligi va siyosiy hokimiyatning institutlashuvidan dalolat beradi. Devoriy rasmlar, haykaltaroshlik asarlari va bezak san'ati namunalari qadimgi Xorazm aholisining estetik didi, diniy e'tiqodlari va marosimiy an'analari to'g'risida muhim ilmiy ma'lumot beradi.

Arxeologik tadqiqotlar natijasida aniqlangan yozma manbalar, xo'jalik buyumlari va moddiy madaniyat namunalari jamiyatning iqtisodiy faoliyati, savdo aloqalari va hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish darajasining rivojlanganligi haqida aniq tasavvur beradi. Bu ma'lumotlar Tuproqqal'aning faqat siyosiy markaz emas, balki mintaqaning madaniy va iqtisodiy hayotida ham yetakchi o'rin tutganini tasdiqlaydi. Xususan, saroy devorlaridagi tasviriy sahnalar hukmdorlar mafkurasi, davlat ramzlari va diniy-siyosiy tasavvurlar tizimini o'rganishda muhim manba sifatida xizmat qiladi. Tuproqqal'aning ilmiy ahamiyati shundaki, u orqali nafaqat qadimgi Xorazm tarixining muayyan bosqichlari, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida yuz bergan sivilizatsiyaviy jarayonlar, madaniyatlararo munosabatlar va tarixiy rivojlanishning umumiy qonuniyatlarini tadqiq etish imkoni yaratiladi. Yodgorlik hududiy sivilizatsiyalarning o'zaro ta'siri, siyosiy markazlarning shakllanishi va madaniy merosning uzluksiz davomiyligi masalalarini o'rganishda mustahkam ilmiy zamin bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli Tuproqqal'a bugungi kunda ham tarix, arxeologiya va madaniyatshunoslik sohalari bo'yicha fundamental tadqiqotlarning asosiy ob'ektlaridan biri hisoblanib kelmoqda. Uni chuqur o'rganish, himoya qilish va ilmiy muomalaga keng jalb etish O'zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosini kelajak avlodlarga yetkazish, milliy o'zlikni anglashni mustahkamlash hamda jahon ilm-faniga munosib hissa qo'shish nuqtai nazaridan dolzarb ilmiy vazifa bo'lib qolmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. “Xorazm tarixi” Urganch-1997
2. Matniyozov S, Sotlikov A, “Jahon tarixi va madaniyatida Xorazm” Xorazm-1999
3. Tolstov S.P. “Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab” T-1964
4. Azimboy Sa’dullayev. “Xorazm Ma’mun akademiyasi” Xiva-2000
5. Sharqshunoslik 2-son. T-1991
6. Istoriya Xorazma.T. Fan-1973
7. “Arxeologlar hikoya qiladi” Mualliflar jamoasi. T. 1976
8. Arsikovskiy A. “Arxeologiya asoslari” T.-1970